

Yaponiyalik olimlar yangi biologik parchalanuvchi material yaratishdi

// 19.05.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yaponiyalik-olimlar-yangi-biologik-parchalanuvchi-material-y>



Yaponiyalik bir guruh olimlar atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lgan biopolimer - tabiiy selluloza asosida shaffof plynka ishlab chiqdi.

Olingan material qog'oz va plastmassa analoglaridan kam emas, qaynoq suv ta'siriga bardosh bera oladi va dengiz suvida 12 oydan kamroq vaqt ichida butunlay parchalanadi.

TPB (transparent paper-based material) deb nomlangan mahsulot butunlay selluloza gidrogelidan iborat bo'lib, quritiladi va litiy bromidning suvli eritmasi bilan ishlov beriladi. Bunday yondashuv bir millimetrdan bir necha millimetrgacha bo'lgan bardoshli, shaffof va nozik mahsulotlarni yaratishga imkon beradi.

Olimlarning ta'kidlashicha, ushbu biopolimer oson eritilishi va qaytadan shakl bergan holda qayta ishlanishi mumkin. Bunda faqatgina shaffoflikning yo'qolishini istisno qilgan holda uning barcha xususiyatlari saqlanib qoladi. Har qanday holatda ham, taqdim etilgan xususiyat uni ko'p foydalanish uchun istiqbolli qiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati